

Amaliy tadqiqotlar tanlovi mavzusi

“Qishloq xo‘jaligi va atrof-muhitni muhofaza qilish fanlari” yo‘nalishi

Loyiha mavzusi	Loyiha bajarilishidan kutilayotgan natija
Tuproq sho‘rlanishiga qarshi kurashishning integratsiyalashgan agrotexnologiyasini ishlab chiqish 	Tadqiqot shakli: Amaliy. Ilmiy tadqiqot natijalari: - meliorativ holati yomon sho‘rlangan yer maydonlarida geoaxborot tizimlari va masofadan zondlash materiallarini qo‘llagan holda doimiy monitoringini yuritishga erishiladi; - qishloq xo‘jaligi foydalanishiga kiritilgan sug‘oriladigan meliorativ holatdagi yer maydonlarida agromeliorativ tadbirlarni inobatga olgan holda ekin turlarini joylashtirish mexanizmi yaratiladi; - hududning tabiiy iqlim va inson xo‘jalik sharoitidan kelib chiqqan holda meliorativ holati yomon yerlardan foydalanish bo‘yicha takomillashtirilgan yer tuzish loyihalari ishlab chiqiladi; - degradatsiyaga uchragan yerlar to‘g‘risida kompleks ma‘lumotlarni vizuallashtiruvchi «Meliorativ yerlar axborot tizimi» ochiq portali yaratiladi; - meliorativ holati yomon bo‘lgan yerlarni qayta tiklash bo‘yicha oliy ta‘lim va ilmiy-tadqiqot muassasalari izlanuvchilari uchun o‘quv qo‘llanma hamda tavsiyanomalar chop etiladi. Natijalarni sinovdan o‘tkazish. Olingan natijalar Qishloq xo‘jaligi vazirligi tizim tashkilotlarda sinovdan o‘tkaziladi va ularning amaliyotda foydalanish uchun qabul qilinganligi to‘g‘risida natijalar Qishloq xo‘jaligi vazirligining xulosasi olinadi. Ilmiy natijalarni chop etish. Olingan tadqiqot natijalari intellektual mulk obyektlari uchun hujjatlar tayyorlanadi. Tadqiqot natijalari asosida tavsiyanomalar, o‘quv qo‘llanmalar, hamda nufuzli jurnallarda va <i>Web of Science/Scopus</i> ma‘lumotlar bazasida indeksatsiyalangan jurnallarda maqolalar chop etiladi Izoh. Ushbu mavzuga taqdim etiladigan ilmiy loyihalar natijalar Qishloq xo‘jaligi vazirligining qo‘llab-quvvatlash xati mavjud bo‘lganida qabul qilinadi.